

MAQSUD SHAYXZODANING MIRZO ULUG'BEK TRAGEDIYASI

Ikramova Feruza Xayrullayevna

*Toshkent Davlat Transport Universiteti Avtomobil yo'llarini
qidiruv va loyihalash kafedrasi dotsenti*

Sanjarova Marjona Sanjar qizi

Toshkent Davlat Transport Universiteti YMSH-6 guruhi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola Maqsud Shayxzodaning Mirzo Ulug'bek tragediyasi haqida yozilgan. Hamda ushbu tragediyaning kelib chiqishi, yaratilishi haqida keltirilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Maqsud Shayxzoda, Mirzo Ulug'bek, xiyonat, tuxmat, fitna, o'zbek dramaturgiyasi.

Abstract: This article is written about the tragedy of Mirzo Ulugbek by Maqsud Sheikhzadeh. It also mentions the origin and creation of this tragedy

Keywords: Maqsud Shaikhzade, Mirzo Ulug'bek, betrayal, slander, conspiracy, Uzbek dramaturgy.

Maqsud Shayxzoda 1908-yil Ozarbayjonning Agdash(Oqtosh) shahrida ziyolilar oilasida dunyoga kelgan. Otasining kasbi shifokorlik bo'lib, she'riyatni nihoyatda sevgan, garzandlariga ham adabiyot tuyg'usini singdirgan inson edi. 1928-yili u hurfikrliligi, ya'ni Ozarbayjonni mustaqi davlatga aylantirish haqidagi erkin fikrlari uchun ayblanib, Toshkentga badarg'a qilinadi. Aynan shu davrdan to umrining oxiriga qadar uning umri O'zbekiston bilan bog'lanadi. Ijodkor avval Gazeta va jurnallarda moharrir, 1935-1938 yillardan hayoti so'ngigacha Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universitetida mumtoz adabiyot kafedrasida dotsent bo'lib ishlaydi.

Maqsud Shayxzoda o'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotining Bobur, Muqumiy, Furqat, Shota Rustaveli, A.S.Pushkin kabi namoyondalarga bag'ishlangan asarlar yaratgan. Ayniqsa ijodkorning "Mirzo Ulug'bek" dramasi o'zbek va jahon adabiyoti durdonalaridan biri hisoblanadi.

Tragediya 1964-yili yozildi, o'sha yili asar Hamza teatri sahnasida qo'yildi, keyinchalik uning asosida kinofilm yaratildi. "Mirzo Ulug'bek" tragediyasida Maqsud Shayxzoda bosh qahramon obrazini Amur Temur va Temuriylar davrida o'zbek xalqi hayotida ro'y bergan Uygonishning yorqin timsoli sifatida aks ettirgan. Shekspirona uslubda yozilgan bu asarda Shayxzoda Ulug'bek hayotining s'nggi 2 yilini tasvirlash orqali uning jahon fani tarixida munosib o'rin egallagan mashhur olim, adolatparvar va haqiqatparvar davlat arbobi va ayni paytda saltanatning mutaassib kuchlari oldida ojiz bir inson bo'lganini ham haqqoniy ko'rsatgan. Shekspirona ko'lam va harorat bilan yozilgan "Mirzo Ulug'bek" tragediyasining maydonga kelishi o'zbek

dramaturgiyasi va teatr tarixida katta voqea bōldi. Shayxzoda senariysi asosida rejissor Farziyev tomonidan yaratilgan "Uluġbek yulduzi " filmi esa keng halq ommasiga uluġ ōzbek olimi va uning fojiali taqdiri bn yaqindan tanishish imkonini beradi.

Asli ismi Muhammad Tarag'ay 1394-yil 22-martda Eron Ozarbayjonning Sultoniya shahrida tug'ilgan.1149-yil 27-oktabrda Samarqandda vafot etgan.Buyuk o'zbek astronomi va matematigi, davlat arbobi,Shohruxning o'g'li amir Temurning nabirasi.

Mirzo Ulug'bek "oliy hukmdor", buyuk olim sifatida ko'p voqealarni o'z boshidan kechirgan tarixiy shaxs.Bularni besh pardaga sig'dirib bo'lmasligini bilgan Maqsud Shayxzoda, ushbu asarda asosan, ikki yo'nalishdagi voqealarni, ya'ni saroy ixtiloflari buyuk olim olib brogan ilmiy izlanishlari yoritilgan.

Dramada Ulug'bek qiyofasi ko'proq asarlardagi obrazlar orqali: Ali Qushchi, Sakkokiy, Shayxulislom, Burhouddin, Chin, Hind, Farang, Rus elchilari va xorijlik talabalar bilan bo'lgan muloqotda ilm-fan homiysi, buyuk olim, ma'rifat fidoyisi kabi xislatlar namoyon bo'ladi.

Tragediyada vaziyatlar tezkor almashinib turadi: Tinchlik notinchlikka, osudalik tahlikaga, ilm-parvarlik-fitna-yu fasodga sabab bo'ladi. Mirzo Ulug'bekka naqadar qiyin bo'lganligini qalban his qilish mumkin.

Dramaning 5-parda 5-ko'rinishidagi voqealar Ota MUrodning hovlisida yuz beradi.Kuz, bulut, qorong'ulik. Bu uch detal fojeadan darak beradi. Ya'ni Mirzo Ulug'bek mamlakatda fitna-yu fasodning tugatilishini istab, arboblarga qasos tig'i botirmasligini, madrasa va rasadxonalarga , zavol yetmasligini talab qilib taxtdan istefo beradi.Buyuk Olim, Xuroson davlatni qirq yil boshqargan hukmdorning umriga nobakor o'g'li Abdulatif, uning mahrami Abbos, Xo'ja Ahror kabi din olimi bilan ish ko'ruvchi ikkiyuzlamachi, munofiq , razil, kimsalar yakun yasaydilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sultonmurod Olim, Sunnat Ahmedov, Rahmon Qo'chqorov. "Adabiyot" ikkinchi nashri. Toshkent-2010, 198-b.
2. "100 mashhur olim" Toshkent – 2016 .4-b.